

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

OPEN  
ACCES

ULRICH'S WEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDU  
DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
1931



TULON KARIMOV NOMIDADI  
TOSHKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI  
TDTU

1955  
TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI

TDF  
TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT KUVO - TEKNOLOGIYA  
AKHİMET - QURILISH UNIVERSITETI  
1991

TJZPI  
TOSHKENT KUVO - TEKNOLOGIYA  
AKHİMET - QURILISH UNIVERSITETI  
1991

TZPI  
TOSHKENT POLYTECHNICK INSTITUTE  
1991



# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

## BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

## TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otobek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil  
28-avgustdagি 360/5-son  
qarori bilan “Dissertatsiyalar  
asosiy ilmiy natijalarini chop  
etishga tavsiya etilgan milliy  
ilmiy nashrlar ro'yxati”ga  
texnika va iqtisodiyot fanlari  
bo'yicha “Muhandislik va  
iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga  
kiritilgan.

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....  | 10  |
| <b>Юсупов Файзулла Якубович</b>  |     |
| Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....   | 20  |
| <b>Quziev Ravshan Ramazanovich</b>   |     |
| Davlat xardilari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari .....   | 26  |
| <b>Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li</b>  |     |
| Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar .....  | 31  |
| <b>Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna</b>  |     |
| Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi .....   | 37  |
| <b>Qodirov Iskandar Alisher o'g'li</b>   |     |
| Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения .....   | 41  |
| <b>Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович</b>  |     |
| Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....   | 50  |
| <b>Fozil Xolmurotov</b>  |     |
| Suv resurslarini tejashda aqlii sug'orish tizimlarining ahamiyati .....  | 62  |
| <b>Abdullahov A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich</b>   |     |
| To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....  | 68  |
| <b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>  |     |
| The current state and development trends of innovative activity in agriculture .....   | 72  |
| <b>Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna</b>  |     |
| Методология оценки инновационной деятельности .....  | 78  |
| <b>Алиева Эльнара Аметова</b>  |     |
| Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....   | 86  |
| <b>Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li</b>   |     |
| Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....   | 92  |
| <b>Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li</b>   |     |
| Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности .....   | 97  |
| <b>Маликов Ауезхан Жорабекович</b>   |     |
| O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....  | 106 |
| <b>Boltayeva Dilafza Jumaqulovna</b>   |     |
| O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi .....  | 114 |
| <b>Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich</b>   |     |
| Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisdoi siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari ..... | 123 |
| <b>Muratbaeva Leonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich</b>   |     |
| Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari .....   | 132 |
| <b>Tojiyev Javlonbek Rustamovich</b>   |     |



|  |     |
|--|-----|
| Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili ..... | 138 |
| <b>Allaberganov Sirojali Saxatovich</b>  |     |
| Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati .....                  | 151 |
| <b>Karimjonov Muhammadrasul To'lqinjon o'g'li</b>  |     |

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# BANDLIKNI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY MEXANIZMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI



**Karimjonov Muhammadrasul To'Iqinjon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasining katta o'qituvchisi  
ORCID: 0009-0003-6885-7748

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bandlikni ta'minlash sohasida moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Aholining barqaror bandligini ta'minlash har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, bandlik siyosatini moliyaviy vositalar bilan qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, ishsizlik darajasini kamaytirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada bandlikni ta'minlashda byudjet mablag'lari, davlat maqsadli dasturlari, kreditlar, grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy mexanizmlarning samaradorlik darajasi o'rganiladi. Maqolada ilg'or xorijiy tajribalarga ham murojaat qilinib, ularni milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari baholanadi. Yakunda, bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosat yurituvchi organlar, mahalliy hokimiyatlar hamda ilmiy doiralar uchun amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Bandlik, moliyaviy mexanizmlar, ishsizlik, mehnat bozori, iqtisodiy siyosat, byudjet mablag'lari, davlat dasturlari, subsidiya, grant, kredit, soliq imtiyozlari, investitsiya, mehnat resurslari, aholi bandligi, tadbirkorlik, yoshlar bandligi, ayollar bandligi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya.

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the role and importance of financial mechanisms in the field of employment. Ensuring stable employment of the population is one of the priority areas in the socio-economic policy of any state. In this regard, supporting employment policy with financial instruments is of particular importance in reducing unemployment and poverty. The article studies the effectiveness of budget funds, state target programs, loans, grants, subsidies, tax incentives and other financial mechanisms in ensuring employment. The article also refers to advanced foreign experiences and assesses the possibilities of their application in national conditions. Finally, proposals and recommendations are developed for further improving financial mechanisms in ensuring employment. The results of the study are of practical importance for economic policy-making bodies, local authorities and scientific circles.

**Keywords:** Employment, financial mechanisms, unemployment, labor market, economic policy, budget funds, state programs, subsidies, grants, loans, tax incentives, investment, labor resources, population employment, entrepreneurship, youth employment, women's employment, financial support, social protection.



**Аннотация:** В данной статье будет проведен углубленный анализ роли и значения финансовых механизмов в сфере обеспечения занятости. Обеспечение стабильной занятости населения является одним из приоритетных направлений социально-экономической политики любого государства. В этом контексте поддержка политики занятости финансовыми инструментами становится особенно важной для снижения уровня безработицы и сокращения бедности. В статье исследуется уровень эффективности бюджетных средств, государственных целевых программ, кредитов, грантов, субсидий, налоговых льгот и других финансовых механизмов в обеспечении занятости. В статье также рассматривается передовой зарубежный опыт и оцениваются возможности его применения в национальных условиях. В заключение будут разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию финансовых механизмов обеспечения занятости. Результаты исследования имеют практическое значение для органов, проводящих экономическую политику, органов местного самоуправления, а также для научных кругов.

**Ключевые слова:** Занятость, финансовые механизмы, безработица, рынок труда, экономическая политика, бюджетные ассигнования, государственные программы, субсидии, гранты, кредиты, налоговые льготы, инвестиции, трудовые ресурсы, занятость населения, предпринимательство, занятость молодежи, занятость женщин, финансовая поддержка, социальная защита.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy taraqqiyot sharoitida aholi bandligini ta'minlash va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish har qanday davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aholi bandligi darajasi mamlakat fuqarolarining turmush sifati, daromad manbalarining barqarorligi, ijtimoiy tenglik va farovonlik bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi globallashuv davrida mehnat bozorida yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi ish o'rinalining shakllanishi hamda ayrim sohalarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'zgarishi kabi omillar aholi bandligini ta'minlash masalasini dolzarb va kompleks yondashuvni talab qiluvchi muammoga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda aholi bandligini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish, ayniqsa yoshlar va ayollarni mehnat faoliyatiga keng jalb qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda qabul qilingan davlat dasturlari, qonunchilik bazasi, mehnat bozorini tartibga solish tizimlari, mahalliy va xorijiy investorlar ishtirokida yangi ish o'rinnari yaratish kabi tashabbuslar muhim rol o'yamoqda. Shu bilan birga, bandlik muammosini hal qilishda faqatgina tashkiliy yoki institutsional yondashuvlar yetarli emasligi, balki moliyaviy mexanizmlarning samarali ishlashi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, byudjet mablag'lardan foydalanish, kreditlash tizimini rivojlantirish, subsidiyalar, grantlar va soliq imtiyozlari orqali bandlikni rag'batlantirish iqtisodiy mexanizmlarning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Moliyaviy mexanizmlar deganda bandlikni ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish maqsadida qo'llaniladigan moliyaviy vositalar, moliyalashtirish manbalari hamda ularning iqtisodiy samaradorligi tushuniladi. Ushbu mexanizmlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita yangi ish o'rinalarini yaratishga, mavjud ishchi kuchining bandligini saqlab qolishga, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz", "Ayollar daftari" kabi dasturlar orqali ajratilayotgan mablag'lar, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar moliyaviy mexanizmlarning amaliy namunasi sifatida qayd etish mumkin. Ushbu dasturlar iqtisodiy barqarorlik bilan birga, ijtimoiy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Moliyaviy mexanizmlarning bandlikka ta'siri bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular yangi ish o'rinalarini yaratish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni rag'batlantiradi. Ikkinchidan, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali mehnat resurslariga talabni oshiradi. Uchinchidan, fuqarolarning o'zini-o'zi band qilishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib beradi, ya'ni o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yishi uchun moliyaviy imkoniyatlar taqdim etadi. Bu esa, o'z navbatida, ishsizlik darajasining kamayishiga, aholi daromadlarining oshishiga va ijtimoiy farovonlikning yaxshilanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, moliyaviy mexanizmlar faqatgina mablag' ajratish yoki kredit berish bilan cheklanmaydi. Ular moliyaviy rejalashtirish, nazorat, monitoring, baholash va moliyaviy tahlil kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Bu esa bandlik dasturlarining samaradorligini oshirish, mablag'lardan oqilona foydalanish va kerakli natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan, bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarni tizimli va strategik asosda yo'lga qo'yish dolzarbliji kundan kunga oshib bormoqda.



Bugungi kunda O'zbekiston tajribasida bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Xususan, aholining ehtiyojmand qatlamlarini tadbirkorlikka jaib qilish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, subsidiyalar va grantlar shaklida moliyaviy yordam ko'rsatish, yoshlar va ayollarni kasb-hunarga o'rgatish xarajatlarini qoplash kabi mexanizmlar amaliyatga joriy etilgan. Bu tadbirlar, o'z navbatida, mamlakatda bandlik darajasini oshirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, mazkur moliyaviy mexanizmlarning real hayotdagi samaradorligini tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, mavjud muammolarni bartaraf etish hamda mexanizmlarni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning strategik rejalashtirilishi va amaliy qo'llanilishi qat'iy nazorat ostida bo'lsa, kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishish imkoniyati yuqori bo'ladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali aholining o'zini-o'zi band qilish, oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishini tasdiqlaydi. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida ham mavjud moliyaviy mexanizmlarni chuqur tahlil qilish va bandlik siyosatini samarali yuritish bo'yicha aniq ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati katta ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati masalasida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning fikr-mulohazalari bandlik va moliyaviy ta'minot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olma M.M.Istroilova moliyaviy mexanizmlarning ijtimoiy sohalardagi o'rni, xususan, bandlikni ta'minlashdagi funksiyalarini tahlil qilib, davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larning samaradorligini oshirish zarurligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, bandlik dasturlarining moliyalashtirilishi nafaqat ish o'rinalarini yaratadi, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Isroilova tadqiqotlarida aynan davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtiriladigan loyihalarning bandlikni oshirishdagi ijobiy ta'siri misollar orqali yoritilgan [5].

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi ilmiy-tadqiqot institutining yetakchi ilmiy xodimi A.X.Yunusov mehnat bozorining moliyaviy boshqaruvi yuzasidan olib borgan izlanishlarida, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, davlat tomonidan aholining turli ijtimoiy qatlamlariga, xususan, yoshlar, ayollar va nogironligi bor shaxslarga mo'ljallangan imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar ajratilishi bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [6].

Xalqaro miqyosda taniqli iqtisodchi Amartya Sen bandlik masalasiga kengroq ijtimoiy yondashuv asosida qaraydi. Uning "Rivojlanish erkinligi" asarida bandlik nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki inson salohiyatini ro'yogha chiqaruvchi muhim omil sifatida baholanadi. A.Sen moliyaviy resurslarni taqsimlashda inkluzivlik tamoyilining ustuvorligini ta'kidlab, aynan moliyaviy inkluziya darajasi oshgan sari, barqaror bandlik ko'rsatkichlari ham yuqorilashini asoslaydi [7].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan hisobotlarda bandlikka moliyaviy ta'sir omillari chuqur tahlil qilinadi. Unga ko'ra, mehnat bozori barqarorligini ta'minlashda fiskal siyosat, makroiqtisodiy muvozanat va davlat investitsiyalarining yo'naltirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. XMT tadqiqotchilari moliyaviy mexanizmlarning ish o'rinalarini yaratishdagi rolini baholashda indikatorlar tizimidan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [8].

Yevropa Ittifoqi doirasida olib borilgan tadqiqotlar, xususan, P.Auer va M.Berg tomonidan ishlab chiqilgan "Flexicurity" modeli moliyaviy moslashuvchanlik va mehnat bozoridagi xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash orqali bandlikni rag'batlantirish imkoniyatlarini ochib beradi. Ular bandlikni ta'minlashdagi moliyaviy mexanizmlarni faqat mablag' taqsimoti nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy himoya tizimlari bilan integratsiyalashgan holda ko'rib chiqishni tavsija qiladi [9].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan B.T.Normatov O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesni rivojlantirish orqali bandlikni ta'minlashda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilgan. Unga ko'ra, mikrokreditlar, imtiyozli bank mahsulotlari va investitsion grantlar yordamida aholining o'zini-o'zi band qilish darajasi ortadi. Normatov ushbu mexanizmlarning samaradorligini oshirish uchun moliyaviy monitoring tizimlarini kuchaytirish zarurligini qayd etadi [10].

Rossiyalik iqtisodchi A.V.Dmitriev o'z tadqiqotlarida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini shakllantirishda bandlik va moliyalashtirish mexanizmlarining uyg'unligiga e'tibor qaratadi. Uning fikriga ko'ra, ishsizlar sonining kamayishi to'g'ridan-to'g'ri byudjet mablag'larning samarali yo'naltirilishi bilan bog'liq bo'lib, bandlik dasturlarining moliyaviy ta'minoti davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliishlardan biri bo'lishi kerak [11].



Shuningdek, E.E.Rusanova "Zamonaviy Rossiya mehnat bozorida bandlik siyosatining moliyaviy jihatlari" nomli ilmiy ishida moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash orqali ishsizlik darajasini pasaytirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. U bandlik dasturlarini rejalashtirishda mintaqaviy iqtisodiy salohiyat va byudjet imkoniyatlarini hisobga olish muhimligini asoslaydi [12].

Taniqli rus olimi A.E.Lansov mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish va uni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini batafsil tahlil qilgan. U infratuzilmaning rivoji bandlik barqarorligiga bevosita ta'sir qilishi hamda bu jarayonda davlat investitsiyalari va soliq imtiyozlarining o'rni yuqoriligini ta'kidlaydi [13].

T.S.Maleva Rossiya bandlik tizimida iqtisodiy faollikni oshirish uchun amalga oshirilgan moliyaviy islohotlarni chuqur tahlil qilib, ayniqsa, byudjet siyosatining aholi bandligiga ta'siri hamda pensiya va nafaqa tizimlari bilan bog'liq moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatib o'tadi [14].

V.I.Leksin hududiy rivojlanish va bandlik o'rtaqidagi bog'liqlikni moliyaviy jihatdan asoslaydi. Uning tadqiqotlarida mintaqaviy bandlik dasturlari mahalliy byudjetlar imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi [15].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari moliyaviy mexanizmlarning bandlik siyosatini shakllantirishdagi rolini aniq ko'rsatib beradi va O'zbekiston sharoitida ham katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyatini o'rganishda zamonaviy iqtisodiy tadqiqot uslublaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv, empirik kuzatuv hamda statistik uslublar asos qilib olindi. Bu yondashuvlar yordamida mavjud holatni chuqur o'rganish bilan bir qatorda, moliyaviy mexanizmlarning bandlik jarayonlariga ta'sirini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Tizimli tahlil orqali moliyaviy mexanizmlarning tarkibiy tuzilmasi, iqtisodiyotdagi vazifalari va mehnat bozoridagi o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Jumladan, davlat byudjeti, moliyaviy institutlar, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar kabi asosisi moliyaviy vositalarning bandlik siyosatidagi o'rni batafsil tahlil qilindi. Qiyyosiy yondashuv orqali O'zbekiston tajribasi xorijiy davlatlar, xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida solishtirildi va muvaffaqiyatli amaliyotlar asosida tavsiyalar ishlab chiqildi.

Empirik tahlil orgali mavjud dasturlar – "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftar" kabi ijtimoiy tashabbuslarning natijalari va ularning moliyalashtirish mexanizmlari o'rganildi. Statistik ma'lumotlar esa O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasining rasmiy manbalari asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida mavjud vaziyat tahlil qilinib, aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari belgilandi. Ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda hozirgi kunda bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2024-yil oxiriga kelib, mamlakatimizda kambag'allik ko'rsatkichida sezilarli ijobji siljish kuzatildi. Aniqroq aytganda, oldingi yillarda 11 foiz atrofida bo'lgan kambag'allik darajasi 8,9 foizgacha qisqardi. Bu ijobji o'zgarishlar ayniqsa, davlat tomonidan amalga oshirilgan, mehnat bandligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli dasturlar natijasida yuzaga keldi. Ushbu tashabbuslar natijasida 719 ming nafar fuqaro kambag'allik toifasidan chiqarildi va ular o'z hayot sifatini yaxshilashga muvaffaq bo'ldi.

Hududlar kesimida kambag'allik darajasining tahlil natijalariga ko'ra, eng qulay holat Navoiy viloyatida kuzatildi – bu yerda aholining atigi 5,7 foizi kambag'allik chegarasida qolmoqda. Boshqa tomonidan, eng yuqori kambag'allik darajasi Xorazm viloyatida qayd etilib, bu ko'rsatkich 11,9 foizni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, aholining bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni kamaytirish yo'nalishida olib borilgan tizimli ishlar o'z samarasini bermoqda. Ish bilan ta'minlash bo'yicha yo'lga qo'yilgan dasturlar nafaqat fuqarolarning daromadlarini oshirishga, balki ularning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu natijalar davlatning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi doirasida kambag'allikni bosqichma-bosqich bartaraf etish yo'lidagi aniq va natijador yondashuvlarini tasdiqlaydi.

Yana iqtisodiy ko'rsatkichlarga nazar tashlasak, 2024-yil boshidan boshlab respublikada mehnatga qodir aholining ishsizlik ko'rsatkichi bir foiz bandga kamayib, 6,8 foizdan 5,8 foizga tushdi. 2024-yilning iyul oyidagi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat bo'yicha 15 million 89 ming kishi yoki umumiyligi aholining 41 foizi ishchi kuchi sifatida faol hisoblanadi. Ushbu iqtisodiy faol aholining 14 million 213 ming nafari yoki ularning 94 foizi turli sohalarda mehnat faoliyatini bilan shug'ullanmoqda (1-rasm).



**1-rasm. O'zbekistondagi band bo'lgan aholi, 2024-yil iyul oyi holatiga ko'ra [18].**

Ayni paytda mamlakat miqyosida 876 ming nafar fuqaro doimiy ishga ega bo'lishga ehtiyoj sezmoqda. Taqqoslash uchun, yilning boshida bunday ehtiyojmandlar soni 1 million 24 ming kishini tashkil etgan edi. Bu esa qisqa muddat ichida mehnat bozori barqarorlashayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ishga layoqatli aholining ishsizlik darajasi ham ijobji o'zgarishga yuz tutgan. Dastlab 2024-yil boshida 6,8 foiz bo'lgan bu ko'rsatkich hozirda 1 foiz punktga pasayib, 5,8 foizga tushdi. Bu raqamlar mehnat bilan bandlik sohasida olib borilayotgan islohotlar va qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini yaqqol aks ettiradi. Shu orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligi ortib borayotganini kuzatish mumkin.

O'zbekistonda bandlikni ta'minlash yo'lida so'nggi yillarda chuqur va keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar mamlakatdagi mehnat bozorini tartibga solish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. Bu borada hukumatning asosiy maqsadi – fuqarolarning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi hamda iqtisodiy barqarorlikka erishishidir.

Eng avvalo, mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida ish izlovchilar va ish beruvchilar o'rtaida aloqalarni mustahkamlovchi elektron platformalar ishga tushirildi. Bu esa bo'sh ish o'rinnari to'g'risida ma'lumot olishni, onlayn rezyume joylashtirishni va masofaviy ish topishni osonlashtirmoqda. Ish bilan ta'minlash markazlari o'z faoliyatini yangicha shaklda tashkil etib, aholiga kasbga yo'naltirish, malaka oshirish va psixologik maslahatlar kabi xizmatlarni ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash alohida e'tiborda turibdi. "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" kabi ijtimoiy dasturlar orqali bu toifalarga kiruvchi fuqarolarga imtiyozli kreditlar, subsidiya va grantlar ajratilmoqda. Ular uchun tadbirdorlikni boshlash, kasb-hunar o'rganish va o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Natijada, ko'plab yoshlar va ayollar kichik biznes yo'liga qo'yib, mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ishlab chiqilgan "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Temir daftari" kabi dasturlar moliyaviy mexanizmlar orqali bandlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturlar nafaqat mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki jamiatdagagi zaif guruhlarni ijtimoiy himoya qilish orqali bandlik darajasini oshiradi (1-jadval):

**1-jadval. "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Temir daftari" ijtimoiy dasturlarining ahamiyati [19].**

| Dastur nomi            | Maqsadi  | Vazifasi  | Natijasi  |
|------------------------|--|---|---|
| <b>Yoshlar daftari</b> | Yoshlarni ish bilan ta'minlash va ularni ijtimoiy-iqtisodiy faoliyikka jalb qilish | 1. Yoshlarni ishga joylashtirish.<br>2. Yoshlar uchun biznes boshlash va innovatsion loyihalar yaratishga rag'batlanish<br>3. Imtiyozli kreditlar va grantlar taqdim etish. | Yoshlar uchun yangi ish o'rinnari yaratish, biznes boshlashda imkoniyatlar yaratish, yoshlarning iqtisodiy mustaqillik darajasini oshirish. |



|                        |  |   |  |
|------------------------|--|---|--|
| <b>Ayollar daftari</b> | Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va bandligini ta'minlash      | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ayollarga imtiyozli kreditlar va grantlar taqdim etish.</li> <li>2. Ularni kasb-hunar o'rganishga jalb qilish.</li> <li>3. Ayollarni ijtimoiy himoya qilish.</li> </ol>   | Ayollarning o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari oshishi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy hayotda faoliigi kuchayishi, gender tengligini ta'minlash. |
| <b>Temir daftar</b>    | Kam ta'minlangan oilalarni band qilish va ijtimoiy himoya qilish | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kam ta'minlangan oilalarga moliyaviy yordam ko'rsatish.</li> <li>2. Ularni kasbga yo'naltirish.</li> <li>3. Mikrokreditlar va imtiyozli kreditlar orqali o'zini o'zi band qilishni rag'batlantirish.</li> </ol> | Kam ta'minlangan oilalarning bandligi oshishi, kambag'allikni qisqartirish, o'zini o'zi band qiluvchi oilalar sonining ko'payishi.                   |

Yuqoridagi jadvalda berilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Temir daftari" dasturlari iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ular aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faoliyikni oshirmoqda. Bu orqali yangi ish o'rinnari yaratilmoqda, bandlik kengaymoqda va iqtisodiy tenglikka erishish yo'lida muhim qadamlar qo'yilmoqda.

Yuqoridagi islohotlardan tashqari, mehnat migrantlari bilan bog'liq masalalarga ham alohida yondashuv qo'llanilmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, xorijda ishlayotgan fuqarolar huquqlarini himoya qilish va ularni ishga joylashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, Rossiya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlar bilan tuzilgan sharhnomalar orqali xorijda vaqtincha ishslash uchun fuqarolar qonuniy asosda yuborilmoqda.

Shu bilan birga, ichki mehnat bozori ham rivojlanmoqda. Hududlarda yangi sanoat zonalari, xizmat ko'rsatish markazlari va kichik ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilib, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinnari yaratilmoqda. Qishloq joylarida esa aholini ko'proq o'zini o'zi band qilishga rag'batlantirish maqsadida imtiyozli mikrokreditlar ajratilmoqda, yer uchastkalari ajratilib, uy sharoitida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishga yordam berilmoqda.

Bandlikni ta'minlashdagi islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi – kasb-hunar ta'lmini takomillashtirishdir. Bozor talablariga mos yangi kasblar bo'yicha o'quv kurslari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu kurslar orqali aholining malaka darajasi oshirilmoqda. Ish beruvchilar bilan hamkorlikda dual ta'lum tizimi joriy qilinmoqda, ya'ni o'quvchi bir vaqtning o'zida nazariy bilim olib, ishlab chiqarishda amaliyot o'tash imkoniga ega bo'immoqda.

Yuqorida tilga olingan islohotlar orqali O'zbekistonda bandlik sohasida yangi sifat bosqichiga o'tilmoqda. Aholining turli qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratilayotgani, shuningdek, mehnat bozori infratuzilmasining zamoniavylashtirilayotgani bu sohadagi muammolarni tizimli tarzda hal etishga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va har bir fuqaroni iqtisodiy faol qilish ustuvor yo'nalishga aylangan.

Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlar muhim vosita sifatida alohida o'r'in tutadi. Chunki har qanday iqtisodiy islohotning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi, birinchi navbatda, uning moliyaviy ta'minoti bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda ham ish o'rinnarini ko'paytirish, aholi daromadini oshirish va ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qilishda turli moliyaviy mexanizmlardan foydalanilmoqda. Ular orqali fuqarolarga, ayniqsa zaif ijtimoiy guruhlar – yoshlar, ayollar, kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ishsizlarga turli ko'rinishdagi iqtisodiy ko'mak ko'rsatilmoqda.

Moliyaviy mexanizmlar orqali aholining bandligini ta'minlash, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga subsidiya va grantlar ajratish, kasb-hunarga tayyorlashga yo'naltirilgan mablag'lar tizimli tarzda yo'lga qo'yilmoqda. Moliyaviy mexanizmlar deganda, asosan quyidagilar tushuniladi:

davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar;

imtiyozli kreditlar;

grantlar va moliyaviy kompensatsiyalar;

xususiy sarmoyalarni jalb qilish vositalari;

xalqaro moliyaviy institutlar mablag'laridan foydalanish.

Bu vositalar orqali aholi bandligini oshirishga xizmat qiluvchi loyihalarni moliyalashtirish, yangi ish o'rinnari yaratish va aholining iqtisodiy faolligini kuchaytirish mumkin bo'ladi. Quyidagi jadvalda O'zbekistonda bandlikni ta'minlashga yo'naltirilayotgan asosiy moliyaviy mexanizmlar tahlilini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).



## 2-jadval. O'zbekistonda bandlikni ta'minlashga yo'naltirilayotgan asosiy moliyaviy mexanizmlar tahlili<sup>1</sup>.

| Moliyaviy mexanizm turi                    | Tavsifi  | Amalga oshirilayotgan natijalar   |
|--|--|---|
| <b>Subsidiya va grantlar</b>               | Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ish boshlashi uchun moliyaviy yordam | 2023-yilda 450 ming fuqaro subsidiya asosida tadbirkorlikni boshladi            |
| Imtiyozli kreditlar                        | Kichik va o'rta biznes subyektlariga past foizli kreditlar berish                    | 2023-yilda "Har bir oila – tadbirkor" dasturida 2,1 trln so'm kredit ajratildi  |
| Kasb-hunarga tayyorlash uchun mablag'lar   | O'quv kurslari va tayyorlov markazlarini moliyalashtirish                            | 2023-yilda 300 ming fuqaro kasb-hunarga tayyorlandi                             |
| Xalqaro moliyaviy yordam                   | Ijtimoiy loyihalarga xalqaro tashkilotlar orqali mablag' jaib qilish                 | Jahon banki, Yevropa Ittifoqi bilan bandlik loyihalari amalga oshirilmoqda      |
| Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish | Ish o'rirlari yaratish uchun investorlarni moliyaviy rag'batlantirish                | Sanoat zonalari va biznes klasterlarda minglab yangi ish o'rirlari yaratilmoqda |

Moliyaviy mexanizmlar nafaqat yangi ish o'rirlari yaratishda, balki mavjud resurslardan samarali foydalanishda ham muhim rol o'ynamoqda. Jumladan, kichik biznes subyektlari uchun ajratilayotgan kreditlar hisobiga xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, tikuvchilik, parrandachilik kabi yo'nalishlarda barqaror daromad keltiruvchi ish o'rirlari yaratilmoqda. Ushbu moliyaviy choralar aholining bandligini oshirish va ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlar muhim rol o'ynaydi. Chunki ularning samarali tashkil etilishi mehnat bozorining barqarorligini ta'minlashga, yangi ish o'rirlarini yaratishga va iqtisodiy faoliyikni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, moliyaviy mexanizmlar faqat iqtisodiy resurslarni ajratish va taqsimlash bilan cheklanmay, balki ijtimoiy barqarorlikni saqlash, aholi qatlamlari o'rtasida tenglikni ta'minlash hamda raqobatbardosh ish o'rirlarini yaratish orqali jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Shuningdek, davlat va xususiy sektor o'tasidagi hamkorlik, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali boshqarilishi bandlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqishda, eng avvalo, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning samaradorligini oshirish lozim. Bandlikni ta'minlash dasturlarining moliyalashtirilishi nafaqat ish o'rirlari yaratish, balki iqtisodiy faoliyikni rag'batlantiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak.

Shu bilan birga, davlat tomonidan xususiy sektorga berilayotgan moliyaviy yordamlar, ijtimoiy himoya tizimlarining kuchaytirilishi, yoshlar, ayollar hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga yo'naltirilgan imtiyozli kreditlar samaradorligini oshirish zarur. Bundan tashqari, Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan tamoyillarni inobatga oлgan holda, fiskal siyosat va davlat investitsiyalarining maqsadli yo'naltirilishi mehnat bozorining barqarorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish va takomillashtirish orqali bandlikni ta'minlashning barqaror va uzlusiz jarayonini shakkantirish mumkin. Ayniqsa, moliyaviy inklyuziya tamoyillarini qo'llash, ijtimoiy yordam tizimlari bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilganda, bandlikni oshirishda yanada samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Moliyaviy inklyuziya darajasi ortgan sari, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va bandlik ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkin.

Innovatsion yondashuvlar, jumladan, raqamli platformalar va texnologiyalardan foydalanish esa moliyaviy mexanizmlarni yanada samarali tashkil etishga ko'maklashadi.

Moliyaviy mexanizmlarning samarali boshqarilishini ta'minlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan



1. Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash – Bandlikni ta'minlashga yo'naltirilgan mablag'larni samarali boshqarish, ularni maqsadli ravishda yo'naltirish va monitoring tizimini yaratish zarur. Bu esa natijadorlikni oshirib, moliyaviy yordamlarning o'z vaqtida va to'g'ri maqsadlarga yetib borishini ta'minlaydi.

2. Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish – Davlat va xususiy sektor o'rtaida samarali hamkorlikni yo'lg'a qo'yish, ayniqsa bandlik dasturlarini moliyalashtirishda xususiy sektor imkoniyatlaridan keng foydalanish, ish o'rinnari yaratishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlash – Ayollar, yoshlari, nogironligi bor shaxslar va boshqa ijtimoiy jihatdan zaif guruhlar uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalarni kengaytirish, ularning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirish zarur.

4. Moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish – Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy qatlamlarning moliyaviy xizmatlarga kirish darajasini ta'minlash orqali bandlik darajasini oshirish mumkin.

5. Moliyaviy monitoring tizimini kuchaytirish – Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini baholash va monitoring qilish tizimini kuchaytirish, ajratilayotgan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi va ishlatalishini nazorat qilish lozim.

Umuman olganda, bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlar samarali va integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuv iqtisodiy resurslarni ajratish bilan birga, ijtimoiyadolatni ta'minlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi zarur. O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida va xalqaro miqyosda ilgari surilgan g'oyalar bu yo'nalishda takomillashuv uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-sonli qarori
4. Isroilova M.M. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda davlat moliyasining roli. – Toshkent: "Fan va taraqqiyot", 2022. – 220 bet.
5. Yunusov A.X. Mehnat bozori boshqaruvi va ijtimoiy siyosat: muammolar va yechimlar. – Toshkent: "Iqtisodchi", 2021. – 198 bet.
6. Sen A. Freedom as Development. – Oxford University Press, 2019. – 364 bet.
7. International Labour Organization. Global Employment Trends Report 2023. – Geneva: ILO Publishing, 2023.
8. Auer P., Berg M. Flexicurity policies: how effective are they in raising employment and productivity? // International Labour Review. – 2017. – Vol. 156(3–4), pp. 345–369.
9. Normatov B.T. Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarning o'rni. – Samarqand: "Zarafshon", 2020. – 156 bet.
10. Дмитриев А.В. Государственное регулирование занятости в условиях социально-экономических преобразований. – М.: Экономика, 2021. – 244 с.
11. Рusanova E.E. Финансовые аспекты политики занятости на современном российском рынке труда // Экономика и управление. – 2020. – №3(45). – С. 27–33.
12. Ланцов А.Е. Инфраструктура: понятие, виды и значение // Статистика и экономика. – 2013. – №3. – С. 49–54.
13. Малева Т.М. Занятость и доходы населения: вызовы и решения. – М.: ИНСОР, 2020. – 192 с.
14. Лексин В.Н. Региональная экономика: проблемы занятости и роль бюджета // Вопросы экономики. – 2018. – №9. – С. 35–41.
15. <https://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi sayti
16. <https://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
17. <https://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti
18. <https://gov.uz/oz/bv> – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi sayti

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait\_2100